



MOLIYAVIY HISOBOT XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOTLARNI TAYYORLASHNING AHAMIYATI VA ULARNI TAYYORLASHGA QO'YILGAN UMUMIY TALABLAR

THE IMPORTANCE OF PREPARING REPORTS BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS AND GENERAL REQUIREMENTS FOR THEIR PREPARATION

¹Sayfulloyev Jamshid
Qobil o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD.
G-mail: sayfulloyevjamshid116@gmail.com
ORCID: 0009-0006-0391-7473

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobotlarni tayyorlashning ahamiyati va hisobotlarni tayyorlashga qo'yilgan umumiy talablar, hisobotlarni tayyorlashda amaliyotda mavjud muammolar, shu bilan birga ularni bartaraf etish bo'yicha fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Eng. - This article examines the importance of preparing reports based on international financial reporting standards, general requirements for preparing reports, existing problems in practice in preparing reports, and opinions and considerations regarding their elimination.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS – IFRS), buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS – IAS), biznes model, aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar.

❖ international financial reporting standards (IFRS), international accounting standards (IAS), business model, assets, equity capital, liabilities, income, expenses.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish, ular tomonidan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari asosida tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborotlar bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, xalqaro standartlar bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish [1] asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bois, xalqaro standartlar asosida hisobotlarni tayyorlashning

tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlarini takomillashtirish, foydalanuvchilarning haqqoniy va ishonchli axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobotlarni tayyorlashga doir fikrlar xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Xususan, bir guruh iqtisodchi olimlar fikricha, "MHXS butun dunyoda tashkilotlar

faoliyati to'g'risida shaffof, ishonchli va tushunarli ma'lumotlarni yaratish uchun samarali vosita sifatida tan olingan. Moliyaviy hisobotning shaffofligi va boshqaruv sifati investorlar hamda kreditorlar investitsiya obyektlarini tanlashda asosiy mezoniga aylanadi" [2].

Mahalliy olimlarimiz i.f.d., professor A.Z. Avloqulovning ta'kidlashicha, "Xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar xo'jalik yurituvchi subyektlarni samarali boshqarishda zarur hisoblanadi. Xalqaro standartlarga o'tishdan asosiy maqsad xalqaro bozorga chiqish hamda investitsiyalarni jalb etishdir. Shuningdek, xalqaro standartlar mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatdan rivojlantirishga ham muhim hissa qo'shadi. Bu jarayonda qulay investitsion muhit, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ochiqligi, boshqaruvning aksiyadorlar oldidagi hisobdorligi, korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublari joriy etilishi aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi" [3].

A.A. Karimov, M.S. Xojiyev va Z. Sobirovalar ta'kidlashicha, "Mamlakatimiz xo'jalik yurituvchi subyektlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tezroq amaliyotga joriy etish xorijiy investorlarni zarur, sifatli va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash va ularning ko'lamini oshirishga xizmat qiladi" [4].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rish mumkinki, xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning umumiy sifat tamoyili va nazariyasi bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo xalqaro standartlarni amaliyotga qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda butun dunyoda yagona integrallashgan hisob tizimini joriy qilish hamda kompaniyalar tomonidan moliyaviy hisobotlarni global darajada taqqoslanuvchan, shaffof va ishonchli bo'lishini ta'minlash maqsadida yagona moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga o'tish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning ahamiyatli tomonlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqish mumkin:

❖ to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

❖ faoliyat turlaridan kelib chiqib kompaniyalar o'rtasidagi moliyaviy natijalarni taqqoslashni (benchmarking) ta'minlash;

❖ korporativ boshqaruvning har bir bo'g'inida aniq, shaffof hisobot orqali boshqaruv qarorlarini samarali qabul qilishga yordam beradigan ma'lumotlarni tayyorlash;

❖ xalqaro reytinglar: Xalqaro kredit reytinglari — Global Competitiveness Index (GCI) — mamlakatlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini baholovchi reyting; Environmental, Social and Governance (ESG) reytingi — bu kompaniyalarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv sohalaridagi faoliyatini baholash mezonini hisoblanadi; Dow Jones Sustainability Index (DJSI) — jahon miqyosida barqaror rivojlanishga hissa qo'shayotgan kompaniyalar reyting ko'rsatkichlaridan joy olish asosan xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar orqali qo'lga kiritiladi.

Xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar, avvalo, xo'jalik yurituvchi subyektlarga keng ko'lamli investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini yaratadi. Xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlardagi ishonchli va shaffof axborotlarni taqdim etish orqali xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatiga investorlarning qiziqish doirasi ortadi. Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi

iqtisodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir etib, xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Demak, xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi — turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilishda tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi foydali

bo'ladigan ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iboratdir.

Moliyaviy hisobot, shuningdek, tashkilot rahbariyati tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini ham aks ettiradi. Ushbu maqsadga erishish uchun tashkilot moliyaviy hisobotining to'liq to'plami quyidagilarni qamrab oladi (1-rasm).

Hisobot davri oxiriga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot

Hisobot davri uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashtirilgan daromad to'g'risidagi hisobot

Hisobot davri uchun xususiy kapitallardagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot

Hisobot davri uchun pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot

Ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma'lumotlaridan iborat izohlar

1-rasm. Xalqaro standartlar asosida tayyorlanadigan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami⁵

Har bir hisobot shakllari o'zida hisob elementlari – aktivlar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni dastlabki va keyingi tan olishlarni hisobga olgan holda aks ettiradi. Ahamiyatlisi shundaki, xalqaro standart talablari umumiy hamda maxsus qoidalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, dastlabki va keyingi tan olishlarda faoliyat turidan kelib chiqib fikr va mulohaza qilishga undaydi. Bu esa hisobotlarning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro standart talablariga asosan hisobotlar to'plamini tayyorlashda hisobot shakllarining har bir elementini alohida tahlil qilib, mulohaza yuritish talab etiladi.

Jumladan, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

- ❖ asosiy vositalar;
- ❖ investitsion ko'chmas mulk;
- ❖ nomoddiy aktivlar;
- ❖ investitsiyalar;

- ❖ zaxiralar;
- ❖ debitorlik qarzlari;
- ❖ pul mablag'lari va pul mablag'lari ekvivalentlari;
- ❖ kreditorlik qarzlari;
- ❖ baholangan majburiyat.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashtirilgan daromad to'g'risidagi hisobot esa quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

- ❖ foyda yoki zarar;
- ❖ jami boshqa umumlashtirilgan daromad;

❖ jami foyda yoki zarar va boshqa umumlashtirilgan daromadni qamrab olgan holda, davr uchun umumlashtirilgan daromad.

Xususiy kapitallardagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- ❖ nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar mulkdorlariga tegishli jami summalar alohida ko'rsatiladi;

⁵ "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli 1-son BHHXS ma'lumoti asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

❖ xususiy kapitalning har bir komponenti uchun tan olingan retrospektiv qo'llashning yoki retrospektiv qayta hisoblashning ta'sirlari alohida ko'rsatiladi.

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotda foydalanuvchilar tomonidan tashkilotning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini hosil qilish imkoniyati hamda tashkilotning ushbu pul oqimlaridan foydalanish ehtiyojlarini baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yoritib berilishi lozim.

Xalqaro standartlar asosida hisobotlarni tayyorlashda xo'jalik yurituvchi subyektlar quyidagilarni aniqlashi maqsadga muvofiq:

- ❖ MHXSga o'tish sanasi;
- ❖ Qiyosiy ma'lumot (davrga ko'ra);
- ❖ Hisobot sanasi.

Tasavvur qilaylik, xo'jalik yurituvchi subyekt 2025-yildan boshlab MHXS asosida hisobot topshirishni maqsad qildi. Bunda, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llashda uchta moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, ikkita foyda yoki zarar va boshqa umumlashtirilgan daromad to'g'risidagi hisobot, ikkita xususiy kapitallardagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot, ikkita pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot shakllarini, izoh va tushuntirishlarni tayyorlashi shart hisoblanadi.

2-rasmida qaysi holatda qanday turdagi hisobotlarni tayyorlash lozimligini ko'rish mumkin.



2-rasm. MHXS asosida hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning vaqt chizig'i (koordinata o'qi misolida)⁶

Quyida xo'jalik yurituvchi subyekt MHXSga o'tish sanasida, qiyosiy hisobot davrida hamda asosiy hisobot yili uchun qaysi hisobot shakllarini tayyorlashi lozimligi haqida to'xtalib o'tsak.

MHXSga o'tish sanasi. Demak, 1-jadvaldan ko'rish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyekt MHXSga o'tish sanasida faqat moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi hamda izoh va tushuntirishlarda balans bo'yicha standart talablaridan kelib chiqib, kerakli ma'lumotlarni yoritib beradi. Bunda qiyosiy davr bo'lmaydi, chunki bu davr o'tish sanasi bo'lib hisoblanadi. MHXSga o'tish sanasida xo'jalik yurituvchi

subyekt tomonidan boshlang'ich MHXS asosida balans tuziladi. Bunda, mol-mulk, majburiyat va xususiy kapital MHXS mezonlari asosida qayta baholanadi va bu MHXS uchun "boshlang'ich nuqta" bo'lib xizmat qiladi.

Qiyosiy hisobot yili. Ushbu davr — hisobot yilidan oldingi yil bo'lib, MHXS asosida qayta hisoblab, taqqoslash (qiyoslash) uchun tayyorlanadi va hisobotda ko'rsatiladi. Bundan asosiy maqsad — hisobotdan foydalanuvchilar yangi (hisobot yili) va oldingi (qiyosiy yil) ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zgarishlarni solishtirishi hisoblanadi. Xalqaro standartlarning asosiy talablaridan biri ham aynan shundan iborat.

⁶ Muallif tomonidan tayyorlandi.

1-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan MHXSga o'tish sanasida tayyorlanishi lozim bo'lgan hisobot shakllari, izohlar va tushuntirishlar⁷

Hisobot shakli	Qiyosiy yil
Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (balans)	2024-yil 1-yanvar (yil boshiga)

Qiyosiy hisobot yilida, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan quyidagi 2-jadvalda

ko'rsatilgan tartib va davr uchun hisobot shakllarini tayyorlashi lozim.

2-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qiyosiy hisobot yilida tayyorlanishi lozim bo'lgan hisobot shakllari, izohlar va tushuntirishlar⁸

Hisobot shakli	Qiyosiy yil (davr)
Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (balans)	2024-yil 31-dekabr (yil oxiriga)
Foyda va zarar + boshqa umumiy daromadlar hisobot	2024-yil uchun
Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot	2024-yil uchun
Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot	2024-yil uchun
Izohlar va tushuntirishlar	2024-yil uchun

Asosiy hisobot yili – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan birinchi marta xalqaro standartlar asosida to'liq yillik moliyaviy hisobotni tayyorlaydigan yil hisoblanadi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan 3-jadvalda keltirilgan barcha hisobot shakllari hamda izoh va tushuntirishlar yoritib berilishi zarur.

Bunda, hisobot tayyorlashda qo'llanilgan hisob siyosati va har bir hisobot elementi

bo'yicha izohlar (aktivlar, majburiyatlar, daromadlar), shuningdek, milliy standart hamda MHXS o'rtasidagi farqlar, o'zgarishlar tahlili (ya'ni BHMStan MHXSga o'tishda qanday o'zgarishlar bo'lganligi) hamda moliyaviy va nomoliyaviy risklar, kredit risklari, valyuta risklari kabi ma'lumotlar to'liq ko'rsatib o'tilishi lozim.

3-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan asosiy hisobot yilida tayyorlanishi lozim bo'lgan hisobot shakllari, izohlar va tushuntirishlar⁹

Hisobot shakli	Asosiy yil (davr)
Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (balans)	2025 yil 31 dekabr (yil oxiriga)
Foyda va zarar + boshqa umumiy daromadlar hisobot	2025 yil uchun
Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot	2025 yil uchun
Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot	2025 yil uchun
Izohlar va tushuntirishlar	2025 yil uchun

⁷ "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" nomli 1-son MHXS asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁸ "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" nomli 1-son MHXS asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁹ "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" nomli 1-son MHXS asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xalqaro standartlar asosida hisobotlarni tayyorlash jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan faoliyatning uzluksizligi tamoyiliga e'tibor qaratilishi juda muhim. Sababi, "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli 1-son MHXSda ham bu borada aniq tushuntirishlar keltirib o'tilgan. Standartda nazarda tutilgan har bir holatni quyida tahlil qilib o'tamiz.

Dastlab, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotni tayyorlash davomida tashkilot faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatini baholashi lozim. Bunda tashkilotning faoliyatini tugatish yoki to'xtatish niyati yo'qligi aniqlansa, tashkilot moliyaviy hisobotni faoliyatning uzluksizligi asosida tayyorlashi lozim.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotni tayyorlash davomida hamda baholashni amalga oshirayotganda tashkilot faoliyatini uzluksiz davom ettirishi qobiliyati to'g'risida shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan ahamiyatli hodisalar yoki shartlarga bog'liq muhim noaniqliklardan xabardor bo'lsa, tashkilot ushbu noaniqliklarni yoritib berishi va moliyaviy hisobotni faoliyatning uzluksizligi asosida tayyorlamasa, u ushbu fakt bilan birga, moliyaviy hisobot qaysi asosda tayyorlanganligini hamda tashkilot faoliyatning uzluksizligini ta'minlay olmasligi sababini ham yoritib berishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijasida tahlil etilgan holatlar umumlashtirilib, quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlardagi axborotlar investorlarga ishonchli va shaffof

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz

ma'lumotlarni taqdim etishi orqali xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga investorlar qiziqishini oshiradi. Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, yuqorida nazarda tutilgan xalqaro reyting ko'rsatkichlarini olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Bugungi kunda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida aks ettiriladigan ma'lumotlarni standart talablariga muvofiq qo'llashda amaliy va nazariy malaka hamda ko'nikmalarning yetishmasligi bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Bu holatni tahlil qilish va amaliy yechim topish maqsadida tajribali mutaxassislarni jalb etish talab etiladi. Natijada tayyorlangan hisobotdan olinadigan iqtisodiy foydaga nisbatan, uni tayyorlashga sarflangan xarajat miqdori oshib ketishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan MHXS asosida tayyorlangan hisobotlar hozircha to'liq ta'sir kuchiga ega emas. Ya'ni, hisobotlar asosan davlat ulushi mavjud korxonalar tomonidan tayyorlanmoqda va taqdim etilmoqda. Xususiyl sektorda esa bu borada sezilarli darajada ishlar amalga oshirilmayapti.

MHXS asosida tayyorlangan hisobotlarni o'z ta'sir kuchiga ega bo'lgan darajaga olib chiqish va Respublikadagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun foydali bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa MHXS asosida tayyorlangan hisobotlarni xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini moliyalashtirish manbaiga ta'sir etishga qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

2. Sara Issakova, Aigul Moldabekova, Altynay Moldasheva, Marina Kenzhebaeva, Galiya Tuleyeva. *Evaluation of Share Investments at Fair Value. //Espacios, Vol. 38 (Nº 59) Year 2017. Page 21.*
3. Avloqulov A.Z. *Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 72 b.*
4. Karimov A.A., Xojiyev M.S., Sobirova Z. *MHXS – xalqaro moliyaviy bozorga chiqish imkoniyatini oshiradimi? // “Moliya” ilmiy jurnali, №2, 2020. – B. 18–22.*
5. *Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: www.ifrs.org*

